

Q'ZBEKİSTONDA AYOLLARNING İJTİMOİY FAOLLIGINI TA'MINLASH

Karimova Lola Muzafarovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti İjtimoiy fanlar kafedrası
dotsenti, (PhD)

ОБЕСПЕЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ

Каримова Лола Музафаровна

Доцент кафедры общественных наук Бухарского
государственного медицинского института, кандидат
медицинских наук

ENSURING SOCIAL ACTIVITY OF WOMEN IN UZBEKISTAN

Karimova Lola Muzafarovna

Associate Professor, Department of Social Sciences,
Bukhara State Medical Institute, (PhD)

Аннотация: В статье рассматриваются ключевые аспекты обеспечения социальной активности женщин в Узбекистане. Анализируются государственная политика, направленная на поддержку женщин, социально-экономические условия, а также препятствия, содержащие участие женщин в общественной, политической и экономической жизни страны.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiy faolligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy omillar va mavjud muammolar tahlil qilinadi. Maqolada xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi faolligi, ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish yo'lidagi ijobjiy tajribalar yoritilgan.

Annotation: This article explores key aspects of ensuring women's social activity in Uzbekistan. It examines the state's gender-focused policies, the role of social and economic conditions, and the challenges that limit women's full participation in public, political, and economic life.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, ijtimoiy faollik, gender tengligi, davlat siyosati.

Ключевые слова женщины, социальная активность, гендерное равенство, государственная политика.

Key words: women, social activity, gender equality, state policy.

Kirish. O'zbekiston jamiyatida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Gender tengligi, ayollar huquqlari, ularning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotdagi ishtiroki bo'yicha qabul qilinayotgan islohotlar bu yo'nalishda sezilarli ijobjiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda [1]. Mazkur maqolada O'zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiy faolligining asosiy yo'nalishlari, mavjud to'siqlar va ularni bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar yoritiladi.

Natijalar va muhokama. Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi — bu ularning jamiyatdagi faol ishtirokini, tashabbuskorligini, o'z hayoti va atrofdagi muhitga ongli ta'sir ko'rsatish qobiliyatini aks ettiruvchi tushunchadir. İjtimoiy faollik orqali ayollar nafaqat oilaviy hayotda, balki siyosiy, iqtisodiy, madaniy va huquqiy sohalarda ham faol rol o'ynashadi [2].

Sotsiologik adabiyotlarda "ijtimoiy faollik" atamasi fuqarolarning ijtimoiy hayotda ongli, ixtiyoriy va barqaror ishtirokini ifodalaydi. Bu ishtirok turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:



<https://orcid.org/0009-0008-4081-4240>

jamoat faoliyatida qatnashish, fuqarolik tashabbuslari, siyosiy ovoz berish, volontyorlik, nodavlat tashkilotlarda faoliyat yuritish va boshqalar. Ijtimoiy-siyosiy turmush, fuqarolik jamiyatini barpo etishda fuqarolik institatlari – siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, xalq harakatlari, ommaviy axborot vositalari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ijodiy uyushmalar, madaniy-ma’rifiy uyushmalar muhim rol o‘ynaydi. Aslida, demokratik institatlari bo‘lmish ushbu birlashma va tashkilotlar kishilarni jamiyat va davlat boshqaruviiga jalg etishga xizmat qiladi. fuqarolik institatlari jamiyatda demokratik qadriyatlarni shakllantirish orqali ijtimoiy-siyosiy hayotni yangilashga, kishilarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishiga xizmat qiladi [3]. O‘zbekistonda oxirgi yillarda ayollarning parlament va mahalliy kengashlardagi ulushi ortib bormoqda.

Mustaqillik O‘zbekiston ayollarini jamiyatning tom ma’nodagi teng huquqli a’zosiga, jumladan, siyosat sub’ektiga aylantirdi. Mustaqillik tufayli ayollar davlat va jamiyat boshqaruvida bevosita yoki bilvosita ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu – O‘zbekiston xalqining, jumladan, ayollarimizning tarixiy yutug‘idir. Ayollarning iqtisodiy hayotda ijtimoiy faolligini tashkil qilishga, ularda tadbirkorlik, ishbilarmonlik xususiyatlarini shakllantirishga, ularning menejment, makro va mikroiqtisodiyot borasidagi bilimlarini oshirishga qaratilgan fuqarolik institatlari ham o‘zlarining keng faoliyatlarini olib bormoqdalar [4]. Mazkur yo‘nalishdagi fuqarolik institatlari ayollarini ijtimoiy-iqtisodiy hayotga jalg etish, ularni iqtisodiy islohotlarning faol qatnashchilariga aylantirishni nazarda tutadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar xotin-qizlardan ham ishbilarmonlik va tadbirkorlik, iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarni talab etadi. Ayollar mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida teng huquqli ishtirokchi sifatida qatnashishlari uchun O‘zbekistonda zarur huquqiy baza, normativ hujjatlar yaratilgan. Hozirgi kunda xotin-qizlarimizning jamiyatdagি rolini oshirishga, ularni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham juda katta o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Jumladan, 2-sentyabr 2019-yilda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Qonun bilan ilk bor milliy qonunchiligidan

“gender” tushunchasiga ta’rif berilib, davlat xizmati, saylov jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy, ta’lim, ilm-fan, madaniyat hamda sog‘liqni saqlash sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun davlat tomonidan teng huquq va imkoniyatlar yaratilishi kafolatlandi.

Faollikning zamonaviy talqini

Bugungi kunda ijtimoiy faollik nafaqat an’naviy jamoat ishlari orqali, balki raqamli platformalarda ishtirok (ijtimoiy tarmoqlar, elektron petitiyalar, onlayn ta’lim, blog yuritish) orqali ham ifodalanmoqda. Xotin-qizlarning ushbu zamonaviy kanallarda ishtiroki ular uchun yangi imkoniyatlar ochadi va ijtimoiy ko‘rinishini kengaytiradi. Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi — bu ularning shaxsiy rivojlanishi bilan birga jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi. Faollikni tushunish va rivojlantrish uchun ijtimoiy, madaniy, gender va raqamli omillarni hisobga olgan holda har tomonlama yondashuv talab qilinadi.

Ijtimoiy faollik – bu fuqarolarning jamiyatda faol ishtirok etishi, ijtimoiy hayotga ta’sir ko‘rsatish, fikr bildirishi, tashabbus ko‘rsatishi bilan bog‘liq jarayondir. Xotin-qizlar uchun bu faollik nafaqat oilaviy, balki siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va madaniy sohalarda o‘z aksini topadi. Ijtimoiy faollik ularning o‘z hayoti, oilasi va jamiyat rivojiga faol ta’sir ko‘rsata olish qobiliyati orqali namoyon bo‘ladi.

Sohaga oid qonunlarning samarali ijrosini ta’minalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 2020 – 2030 yillarda gender tenglikni ta’minalash strategiyasi loyihasi tayyorlandi. Ushbu hujjat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantrishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi da belgilangan ustuvor vazifalar hamda 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlar va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqildi. “O‘zbekiston Respublikasining 2020 – 2030 yillarda gender tenglikni ta’minalash strategiyasi 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantrishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llabquvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida ham aynan xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi keng ishtirokini ta’minalash masalasiga juda katta e’tibor

qaratilgan. Ayollarning milliy demokratik taraqqiyot jarayonlarida faol ishtirok etishi nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillarga borib taqaluvchi obyektiv zaruriyat, shuningdek, ayollarning chin inson, o'z tadirini o'zi yaratuvchi subyekt, sha'ni va huquqlarini himoya qiluvchi ijtimoiy shaxs sifatida yashashi uchun ham zarurdir.

Har qanday faollik, tashabbus ham boshqarish ishlariiga, davlat va jamiyat maqsadlariga, vazifalariga mos kelavermaydi. Ijtimoiy manfaatlarni ifoda etgan, demokratik taraqqiyotga xizmat qiladigan, qonunlar doirasidagi faollik, tashabbus qo'llab-quvvatlanadi. Ijtimoiy faollik o'z navbatida jamiyat, davlat va ijtimoiy muhit tomonidan ham qo'llab-quvvatlanishi lozim. Ijtimoiy-siyosiy faollik mohiyatan shaxsning jamiyat va davlat ishlariini tashkil etish, jamiyatni boshqarishda qatnashishini ifoda qiladigan voqelikdir. Zamonaviy demokratik davlatlarda kishilarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, eng avvalo, ularning siyosiy partiyalarga munosabatida, ularning strategik maqsadlari va g'oyalarini qo'llab-quvvatlashi, faoliyatida qatnashishida namoyon bo'ladi.

Ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda etnomadaniy omillarni, xalqimizning turmush tarzi va mentalitetini hisobga olmay bo'lmaydi, chunki demokratiyani ham, feminizatsiyani ham tashqaridan joriy qilish mumkin emas. Mutaxassislarning fikricha, feminism – xotinqizlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalarda erkaklar bilan teng huquqqa ega bo'lishi uchun kurashni, shuningdek ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etishni targ'ib etadi. Ijtimoiy hayotda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar kishilarning ongiga, hayot tarziga va ijtimoiy faolligiga ta'sir etmay qolmaydi, chunki demokratiya tom ma'noda xalq manfaatlariiga, ko'pchilikning orzu tilaklarini ro'yobga chiqarishga imkon beradi. Ayniqsa hozirgi paytda, demokratiya umuminsoniy qadriyat sifatida e'tirof etilayotganida ijtimoiy faoliyat (faollik) bilan demokratiya, demokratik o'zgarishlar bir-birini taqozo etuvchi voqelikka aylanadi. Jamiyatda xotin-qizlarning rolini oshirish va ijtimoiy-siyosiy faolliklarini kuchaytirish uchun ularning bola tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lgan hamda boshqa sabablarga ko'ra to'liq ish kuni davomida ishslash imkoniyatiga ega bo'lmanan qismini ularning imkoniyati darajasida ish bilan taminlash zarur. Buning uchun bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan ishlab chiqarish

munosabatlarini qaror topshirish, shirkatlarga uyushgan holda xotin-qizlarning uyda ish bajarishini, ya'ni kasanachilikni yo'nga qo'yish zarur. Respublikamizda siyosiy barqarorlikning mavjudligi bois keng miqyosda bunyodkorlikyaratuvchilik ishlari olib borilmoqda. Mustakil O'zbekistonimiz erishayotgan yutuqlar butun jahon ahlining diqqat-e'tiborini o'ziga tortmokda. Ayniqsa, respublikamizda bunyodkorlik sohasida erishilgan yutuqlar tahsinga loyiqidir. Yurtimizda bunyod etilayotgan ko'plab ishalab chiqarish korxonalari, firmalar, shirkatlar, aksiyadorlik jamiyatlari, o'nlab go'zal mehmonxonalar, osmono'par turar joy va jamoat binolari, ko'zni qamashtiruvchi hilhil pishgan turli mevalarga to'lib-toshgan bozorlar, shinam ko'chalar, keng yo'llar, xullas, sanab sanog'iga yetib bo'lmaydigan o'zgarishlar bunga dalildir.

Xulosa. Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi – bu nafaqat gender tengligi masalasi, balki butun jamiyat taraqqiyotining muhim mezonidir. Ularni faollikka undovchi muhit yaratish, imkoniyatlarni kengaytirish, huquqlarini ta'minlash orqali O'zbekiston yanada kuchli,adolatli va taraqqiy etgan jamiyatga aylanadi.

Adabiyotlar

1. Karimova L. M. OPTIMAL WAYS TO IMPROVE WOMEN'S SOCIAL MOBILITY MECHANISMS //Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. – 2024. – T. 2. – №. 6. – С. 87-90.
2. Mukhlisa A., Amanovna H. A. SOCIAL PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF WORKING WITH DISORDERED YOUTH //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – T. 11. – №. 4. – С. 1448-1452.
3. Шарипов А., Мухаммадиева Г. И. Some theoretical aspects moral and legal education of schoolchildren //Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Гуманитарные науки. – 2019. – №. 3 (60). – С. 141-144.
4. Sharipov A. A PHILOSOPHICAL ASPECT OF THE NEW INNOVATION AND INVESTMENT ENVIRONMENT: PHILOSOPHICAL ASPECT OF THE NEW INNOVATION AND INVESTMENT ENVIRONMENT //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnalı. – 2022. – Т. 2. – №. 2.